

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**GEOGRAFIYA FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST
TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

GEOGRAFIYA FANIDAN KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TOPSHIRIQLARI

SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentiga muvofiq ishlab chiqildi. Hujjat Geografiya fani o‘qituvchilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash uchun qo‘llaniladigan test sinovlarining mazmuni, tuzilmasi va baholash mezonlarini belgilaydi.

Spetsifikatsiya test topshiriqlarining mazmuni, tuzilmasi, baholash mezonlari, test topshiriqlarining shakli, kognitiv darajalari hamda baholash jarayonini tashkil etish tartibini belgilab beradi.

Mazkur hujjat test topshiriqlarini ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi hamda baholash jarayonining shaffofligi, adolatligi va ilmiy asoslanganligini ta’minlashga qaratilgan.

I. Umumiy tamoyillar

Baholashning asosiy maqsadi Geografiya fani o‘qituvchilarining fan bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy faoliyat ko‘nikmalarini tashkil etish kompetensiyasi, Geografiya fanini o‘qitish metodikasi bo‘yicha bilimlari, pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyalarini kompleks baholashdan iborat. Baholash natijalari pedagog kadrlarni kasbiy sertifikatlash jarayonida qaror qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 12-fevraldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 87-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 233-son buyrug‘i.

III. Baholash qamrovi

Geografiya fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun ajratilgan vaqt 90 daqiqa etib belgilanadi. Bunda yopiq

test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan (Y1)*), *moslashtirishni talab qiladigan (Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)* foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan.

IV. Test tuzilmasi

Test sinovi Geografiya fanining asosiy mazmun yo'nalishlarini qamrab oladi. Xususan, test topshiriqlari geografiyaning boshlang'ich kursi, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi, amaliy geografiya, geografik masala va misollar, geografiya fanini o'qitish metodikasi va pedagogik mahoratga oid bilim hamda ko'nikmalarni baholashga qaratilgan. Test topshiriqlarining mazmuni umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari, amaldagi o'quv dasturlari hamda fan bo'yicha metodik talablar asosida shakllantiriladi.

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. Geografiyaning boshlang‘ich kursi		
1.1. Geografiya fani va uning rivojlanishi	- geografiya fani mazmunining nazariy asoslarini bilish, ularni tahlil qilish;	6 ta
1.2. Geografik qobiq va uning umumiy qonuniyatlari	- Quyosh sistemasi va yer shakli, holati, harakati bilan bog‘liq jarayonlarni bilish hamda hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, ularni tahlil qilish; - geografik qobiq tarkibiy qismlarini hamda uning rivojlanishiga doir ma’lumotlarga asosan ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik qonuniyatlarni aniqlash, ularga doir geografik jarayonlarni tahlil qilish;	
2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi		
2.1. Dunyo okeani	- dunyo okeani va uning tarkibi to‘g‘risida bilish, farqlash hamda taqqoslash, ularni tahlil qilish;	2 ta

2.2. Materiklar va ularning xususiyatlari	- materiklar va okeanlarning asosiy xususiyatlariga oid nazariy ma'lumotlarni bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va umumgeografik qonuniyatlarni aniqlash, taqqoslash, ularga oid geografik jarayonlar yoki hodisalarni tahlil qilish;	7 ta
3. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi		
3.1. O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik xususiyatlari	- O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiatining o'ziga xos xususiyatlariga oid ma'lumotlarni bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, farq va qonuniyatlarni aniqlash, ularga oid geografik masalalar, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari)ni geografik tahlil qilish; - O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlariga oid ma'lumotlarni bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, farq va qonuniyatlarni aniqlash, ularga oid geografik masalalar, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari)ni geografik tahlil qilish;	5 ta
4. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi		
4.1. O'zbekistonning geografik o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishi va xo'jaligi	- O'zbekiston geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisining tarkibi va joylashuvi, iqtisodiyotining tarkibi, sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning muhim tarmoqlari, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, tashqi iqtisodiy aloqalar, xo'jalik ixtisoslashuvi hamda iqtisodiy rayonlashtirishga oid ma'lumotlarni bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, farq va qonuniyatlarni aniqlash, ularga oid geografik masalalar, jarayon yoki hodisalarni tahlil qilish; - O'zbekistonning regional tavsifi to'g'risida bilish, farqlash hamda taqqoslash, ularni tahlil qilish;	6 ta
5. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi		

5.1. Jahoning siyosiy xaritasi	- dunyoning siyosiy xaritasi, jahon mamlakatlarining boshqaruv shakli, davlat tuzilishi va rivojlanishiga oid ma'lumotlarni bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish	1 ta
5.2. Jahon tabiiy resurslari	- dunyoning tabiiy resurslari, tugamaydigan va tiklanadigan hamda mineral resurslar geografiyasi, global ekologik muammolarga oid ma'lumotlarni bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish	1 ta
5.3. Jahon xo'jaligi geografiyasi	- umumiy o'rta ta'lim dasturiga kiritilgan davlatlar xususiyatlari, aholisiga oid ma'lumotlarni bilish, taqqoslash, ularni tahlil qilish - jahon xo'jaligi geografiyasiga oid ma'lumotlarni bilish, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, farq va qonuniyatlarni aniqlash, ularga oid geografik masalalar, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari)ni geografik tahlil qilish -jahon aholisining tarkibi va joylashuvi, dunyodagi sanoat, qishloq xo'jaligi va transportning muhim tarmoqlari, jahon mamlakatlari va regionlarining xo'jalik ixtisoslashuvi	3 ta
6. Amaliy geografiya		
6.1. Amaliy geografik tadqiqotlar	- jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, amaliy geografik tadqiqotlarning mazmun mohiyatini bilish; - hayotiy vaziyatlarda qo'llash, qonuniyatlarni aniqlash, ularga oid geografik masalalar, jarayon yoki hodisalar (yoki ularning modellari) ni geografik tahlil qilish; - dunyoning geosiyosiy tizimi va uning shakllanishi, insoniyatning global muammolari oid ma'lumotlarni bilish, farqlash, taqqoslash, ularni tahlil qilish	3 ta
7. Geografik masala, misol va topshiriqlar		

7.1. Tabiiy geografiyaga oid masalalar	- umumgeografik qonuniyatlar va geografiya fanining nazariy materiallari asosida (relyef, harorat, namlik, shamol, bosim, quyosh nurining tushish burchagi, soat mintaqalari, daryoning suv sarfi va nishabligi, suvning shoʻrligi, harorati, chuqurligi, ufq tomonlari, azimut va boshq.) geografik masalalarni hal qilish;	2 ta
7.2. Iqtisodiy geografiyaga oid masalalar	- iqtisodiy geografik (aholi soni, zichligi, oʻsishi, kamayishi, harakatiga oid, urbanizatsiya darajasi, ixtisoslashuv darajasi, xoʻjalik tarkibi va h.k.) masalalarni hal qilish	1 ta
8. Geografiyaga oid grafik materiallar		
8.1. Geografik xaritalar va xarita-sxemalar, rasm, jadval, grafik, diagramma, sxema, jadvallar	-geografik atlas va xaritalar kabi grafik materiallar, ularning turlari, shartli belgilari, ulardan amaliyotda foydalanishga doir nazariy maʼlumotlarni bilish, -grafik materiallar yordamida maʼlumot va qonuniyatlarni aniqlash, ularga doir geografik masalalarni hal qilish, - jarayon yoki hodisalarni ifodalovchi, axborot tasviriy materiallarni (rasm, jadval, grafik, diagramma, sxemalar) tahlil qilish	3 ta
Jami		40 ta

Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va koʻnikmalari boʻyicha taqsimoti

2-jadval

1. PEDAGOGIK MAHORAT		10 ta
1.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va taʼlim paradigmalari (anʼanaviy - konservativ, ratsionalistik (bixevioristik), fenomenologik (gumanistik), texnokratik va ezoterik) ini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish;	10

	– pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko‘rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlari(yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, – nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma’ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an’anaviy dars, noan’anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish, faoliyatini monitoring qilish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to‘g‘ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to‘g‘ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo‘llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o‘rish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, persiptiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o‘yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o‘yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish;– pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, persiptiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo‘llay olish, – ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim,	
--	---	--

	shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar) ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va xususiy texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	
--	--	--

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	22
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	23
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	5

V. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **ball** berilmaydi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

VI. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Geografiya fanidan tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. 5-sinf. Geografiya darsligi (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi). P.G'ulomov va b. "Mitti yulduz". 2020.
2. 7-sinf. Geografiya darsligi. M. T. Mirakmalov va boshqalar. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. 7-sinf. Geografiya darsligi (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi). P.G'ulomov va b. "O'qituvchi". 2017.
4. 8-sinf. Geografiya darsligi (O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) P.Musayev va b. "Sharq". 2019.
5. 9-sinf. Geografiya darsligi (Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) A.Qayumov va b. "O'zbekiston" 2019.
6. 10-sinf. Geografiya darsligi. V.Federko va b. "Colorpak" 2022.
7. 10-sinf Geografiya (Amaliy geografiya). va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun Sh.Sharipov va b. "O'zbekiston" milliy ensiklopediyasi" 2017.
8. Geografik atlaslar 5, 6, 7, 8, 9, 10-sinflar. "Kartografiya" davlat ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi. 2022, 2023, 2024, 2025.
9. PISA.www.oecd.org/pisa/test/questions.htm. PISA topshiriqlari to'plami
10. TIMSS. Timss topshiriqlari to'plami.

VIII. Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, Toshkent: "Bayoz" nashriyoti, 2025
3. Tolipov O'., Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Innovatsiya-ziyo" nashriyoti, 2019.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta'limda baholash va monitoring asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.